

ISHSIZLIK MUAMMOSI VA BANDLIK: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xujamurodova Shaxina
Qahramonova Yulduz

QDTU Iqtisodiyot fakulteti Statistika yūnalishi talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishsizlik tushunchasi, uning turlari va asosiy sabablarini chuqur tahlil qilamiz. O'zbekistonda necha foiz odam ishsiz yoki necha foizi ish bilan bandligi, ishsizlikni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlardir. Shuningdek, maqolada bandlikni oshirishga qaratilgan samarali strategiyalar, jumladan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari va investitsiyalarni jalb qilish kabi chora tadbirlar ko'rib chiqiladi. Ishsizlik muammosini hal qilish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi bandlik bo'yicha olib borilayotgan islohatlarga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. Ishsizlik, bandlik, strategiyalar, xalqaro tajribalar, o'rta biznes,

UNEMPLOYMENT ISSUE AND EMPLOYMENT: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Khujamurodova Shakhina
Khahramonova Yulduz

Students of the Statistics Department Faculty of Economics KSTU

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the concept of unemployment, its types and main causes. It examines the percentage of unemployment people and those employed in Uzbekistan, as well as the measures taken to prevent unemployment. Additionally, the article explores effective strategies to increase employment of small and medium-sized businesses, professional retraining programs, and investment attraction. Attention is also given to advanced international experiences in addressing unemployment and the ongoing employment reforms in Uzbekistan.

Key words: Unemployment, employment, strategies, international experiences, medium-sized business.

ПРОБЛЕМА БЕЗРАБОТИЦЫ И ЗАНЯТОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Хужамуродова Шахина
Кахрамонова Юлдуз

Студенты направления «Статистика» факультета Экономики КарГТУ

***Аннотация.** В данной статье проводится глубокий анализ понятия безработицы, ее видов и основных причин. Рассматривается процент безработных и занятых в Узбекистане, а также меры, направленные на предотвращение безработицы. Кроме того, в статье изучаются эффективные стратегии повышения занятости, включая развитие малого и среднего бизнеса, программы профессиональной переподготовки и привлечение инвестиций. Также уделяется внимание передовому международному опыту в решении проблемы безработицы и проводимым реформам в сфере занятости в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** Безработица, занятость, стратегии, международный опыт, средний бизнес.*

Ishsizlik - har qanday iqtisodiyot uchun jiddiy muammo bo'lib, u nafaqat aholi daromadiga, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga ham ta'sir qiladi. Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi. 1998-yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Ishsizlikning ortishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, kambag'allik darajasini oshiradi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmay qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi «Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma'lum bir aniqliklarni kiritish talab qiladi. Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tarkibiy o'zgarishlar oqibatida o'zgarib turadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o'tishlarini rag'batlantirishga ularga ham ish bilan to'la band qilingan shaxslarga mo'ljallangan ijtimoiy ta'minotning turlarini, ta'tillar va ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o'rnatish, kafolatlardan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta'minlash, har yili beriladigan ta'tillarni o'z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin. Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ish kuchi taklifning unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika

rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi. iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo‘lib qoladi. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo‘lmay qoladi, aholi ishchilarga nisbatan tez o‘sgan vaqtlarida, uning bir qismi ortiqcha bo‘lib, ishsiz qoladi.

Ishsizlikning sababi har xil bo‘lganidek uning shakllari ham turlicha. Ishsizlikning asosiy shakllari: friksion ishsizlik -turli sabablarga ko‘ra vaqt-vaqti bilan ishsiz qolish va bu ixtiyoriy ishsizlik hisoblanadi. Tarkibiy ishsizlik - ishlab chiqarish tuzilmasi o‘zgartirilgan sharoitda eski tarmoqlarda ishlab kelgan kishilarning yangi tarmoqlarga kerak bo‘lgan kasbni hali o‘zlashtirmagan vaqtida yuz beradi. Siklli ishsizlik - iqtisodiy tangliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarishning pasayib ketishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik bu esa majburan ishsiz qolishdir. Mavsumiy ishsizlik - mavsumiy ishda band bo‘lganlarning mavsum tugagan vaqti ishsiz qolishidir. Yashirin ishsizlik - rasman ish bilan band bo‘lganlarning faqat qisman ishlashi. Unga qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasiga o‘tganlar, ish yo‘qligida haq berilmaydigan ta‘tilga chiqqanlar kiradi.

Ishsizlar ishlayotganlar bilan bir qatorda mamlakat ish kuchini tashkil qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik muammosini o‘rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakatda korxonalarining ishlab chiqarishimi kengaytirish va aholi turmush darajasini yanayam yaxshilashga aloqador chora tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Ishsizlar safiga, odatda, nafaqat turli sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shatilganlar, balki o‘z ixtiyoriga ko‘ra ishdan ketganlar va yangi ish topishga harakat qilayotgan shaxslar ham kiritilishini qayd etish lozim. Ishsizlik tarkibi uning sabablariga ko‘ra ish kuchining 4 asosiy toifasini o‘z ichiga oladi: ishdan bo‘shatilishi natijasida ish joyini yo‘qotganlar, ishdan ixtiyoriy ravishda bo‘shaganlar, tanaffusdan so‘ng ish qidirayotganlar, birinchi bora ish qidirayotganlar. Bu toifalarning o‘zaro nisbatlari iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga bog‘liq.

Mamlakat miqyosida 3-5% darajasidagi ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holati hisoblanadi. Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun aholi bandligini ta‘minlash davlat dasturlari ishlab chiqiladi, korxonalar qurilib, yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi, xodimlarni yangi kasblarga o‘qitish, qayta tayyorlash ishlari amalga oshiriladi va bandlikka yordam jamg‘armasi tashkil qilinadi. Mehnat qonunlariga ko‘ra, ishsizlarga mehnat birjalari orqali ishsizlik nafaqasi to‘lanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-fevral kuni aholi bandligi va investitsiyalarni jalb qilish masalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, joriy yilda 5,2 million aholining bandligini ta‘minlash, 1,5 million kishini kambag‘allikdan chiqarish, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish va eksportni 30 milliard

dollardan ziyodga yetkazish rejalashtirilgan. Yig'ilishda boshlangan ishlar va dastlabki natijalar bo'yicha hisobot taqdim etildi. Qayd etilganidek, yanvar oyida 277 ming fuqaro ish bilan ta'minlandi, shundan 91 ming nafari doimiy ish bilan ta'minlandi, 153 ming nafari tadbirkorlik faoliyatiga jalb etildi. Kambag'allikni qisqartirish uchun 32 ta yo'nalishda yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Yaqinda vazirlik va hokimliklardan bir guruh mutaxassislar tajriba alamashish uchun joylarda imkoniyatlar tushuntiriladi. Ish o'rinlarini yaratish to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bilan bog'liq. Joriy yilda umumiy qiymati qariyb 14 milliard dollarlik 8 mingta loyiha amalga oshirilib, 272 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra o'tgan oyda O'zbekistonga 3 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va 623 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Yig'ilishda loyihalar ustida maqsadli ishlash va sur'atni sezilarli darajada oshirish zarurligi ta'kidlandi. Har bir inson hozirgi kunda biror faoliyatni amalga oshirishni o'ylashi yoki o'zi yoqtirgan kasbni kuchli mutaxassisi bo'lish haqida aniq maqsad bilan harakat qilishi lozim. Shundagina katta ehtimol bilann ishsizlikning oldi mumkin. Yurtimizda hozirgi kunda yoshlarga ilm olishi va yangi g'oyalarini amalga oshirishi uchun keng imkon yaratilgan. Agar biz imkoniyatlarimizdan qo'limizdan kelgancha foydalanib O'zbekiston ravnaqi yo'lida harakat qilsak, o'ylaymanki kelajakda yurtimizda ishsizlik muammosi bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz mumkinki, yuqorida ko'rib o'tganimizdek ishsizlik ham insoniyat oldida turgan katta muammolardan biridir. O'zbekistonda, yuqorida aytib o'tganimizdek' istiqoldan so'ng o'zimizda rivojlanmagan ko'pgina sohalar rivojlantirilda va yangi loyihalarga inson mehnati resurslari jalb etilgani, shuningdek ishsizlikning kamayashini ko'rdik. Biroq ishlab chiqarish sohasi bir maromda tekis ketavermaydi. Tabirkorlar doimo yangiliklar va yangi texnikalarga ehtiyoj sezadi. Ishlab chiqarishda samarali bo'lgan texnologiyalar esa ish unumdorligini oshirgan holda ishsizlikni ko'payishiga olib keladi. Har bir inson hozirgi kunda biror faoliyatni amalga oshirishni yiko o'zi yaxshi ko'rgan kasbni yaxshi mutaxassisi bo'lish haqida aniq maqsad bilan harakat qilishi lozim. Yurtimizda hozirgi kunda yoshlarga ilm olishi va yangi g'oyalarni amalga oshirishi ko'p imkoniyatlar yaratilgan. Agar biz imkoniyatlarimizdan qo'limizdan kelgancha foydalanib O'zbekistonning ravnaqi yo'lida harakat qilsak, o'ylaymanki yangi kelajakda yurtimizda ishsizlik muammosi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishsizlik>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
3. gazeta.uz/oz/2025/01/17/poverty/
4. Shodmonov Sh.Sh, G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazaryasi. T. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021.
5. Исраилова, Н. Х. (2016). Конкретная поэзия как инновационное направление в немецкой литературе. Научная дискуссия: инновации в современном мире, (4-1), 197-201.
6. Israilova, N. H. (2016). Der Einfluss des Englischen und Amerikanischen auf die deutsche Sprache. In The Seventh International Congress on Social Sciences and Humanities (pp. 143-146).
7. Kh, I. N., Mamatova, N. K., & Mamatov, R. R. (2021). Methodology Of Teaching German As A Second Foreign Language. Экономика и социум, (3-1 (82)), 103-106.
8. Israilova, N. X. (2024). " KITSDEUTSCH" AS A NEW DIALECT IN A GERMAN COUNTRY. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 678-682.
9. Матқасимова, М. Э. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В SMS. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 687-691.
10. Исраилова, Н. Х. (2016). Конкретная поэзия как инновационное направление в немецкой литературе. Научная дискуссия: инновации в современном мире, (4-1), 197-201.
11. Матқосимова, М. (2024). НЕМИС ТИЛИДАГИ СИМВОЛИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМАСИ. IQRO INDEXING, 9(2), 601-605.
12. Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.
13. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT
14. ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).

15. Marifjanovna, I. D. (2024). INNOVATION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. SOVREMENNOE OBRAZOVANIE I ISSLEDOVANIYA, 1(1), 169-172.

16. Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 94-96.

17. Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 94-97.

18. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.